



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EISSN 2181-2187

8 (94) 2026

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:
М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
У.О. АБИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОМОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Д.Т. АШУРОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
Э.Б. ХАККУЛОВ
Г.С. ХОДЖИЕВА
Г.У. НУРОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

8 (94)

2026

Август

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com
E: ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

UQK 618.146-006-007.17:578.827

REPRODUKTIV YOSHDAGI BEMORLARDA BACHADON BO'YNI PAPILLOMA VIRUSI (HPV) BILAN BOG'LIQ ZARARLANISHLARINING DIAGNOSTIKASINI OPTIMALLASHTIRISH

Karimova F. T., <https://orcid.org/0009-0004-3846-3649>

Xikmatova N. I., <https://orcid.org/0000-0001-5986-1102>

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy Tel: +998 (95) 911-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ **Rezyume**

Bachadon bo'yni saratoni ayollar reproduktiv salomatligiga jiddiy xavf tug'diruvchi onkoginekologik kasalliklardan biri bo'lib, uning rivojlanishida yuqori onkogen xavfga ega odam papilloma virusi (Human papillomavirus — HPV) bilan persistirlovchi infeksiya yetakchi etiologik omil hisoblanadi. HPV infeksiyasini o'z vaqtida aniqlash, virusning yuqori onkogen genotiplarini differensial baholash hamda bachadon bo'yni epiteliysidagi erta o'zgarishlarni aniqlash servikal intraepitelial neoplaziya va invaziv saraton rivojlanishining oldini olish imkonini beradi.

Maqsad. Reproaktiv yoshdagi ayollarda HPV bilan bog'liq bachadon bo'yni zararlanishlarini erta aniqlash samaradorligini oshirish uchun molekulyar-genetik, sitologik va kolposkopik tekshiruvlarni kompleks qo'llashga asoslangan diagnostik algoritmnini takomillashtirish.

Material va usullar. Bachadon bo'yni patologiyasi yoki HPV infeksiyasiga shubha qilingan reproduktiv yoshdagi ayollarni tekshirishda klinik-anamnestik baholash, ginekologik ko'rik, HPV-DNA testi, yuqori onkogen xavfli HPV genotiplarini aniqlash, suyuqlik asosidagi yoki an'anaviy sitologik tekshiruv, kengaytirilgan kolposkopiya hamda ko'rsatmalarga muvofiq bachadon bo'yni biopsiyasi va gistologik tekshiruvlardan foydalanishga asoslangan kompleks yondashuv tahlil qilindi.

Natijalar. HPV-DNA testini birlamchi molekulyar skrining usuli sifatida qo'llash va HPV-musbat bemorlarni genotiplash, sitologik va kolposkopik ko'rsatkichlar asosida xavf guruhlariga ajratish bachadon bo'yni epiteliyal o'zgarishlarini erta aniqlash imkoniyatini oshiradi. Ayniqsa, HPV 16 va HPV 18 aniqlangan, virus persistensiyasi kuzatilgan hamda sitologik va kolposkopik o'zgarishlari mavjud bemorlarda chuqurlashtirilgan tekshiruv zarur.

Xulosa. Reproaktiv yoshdagi ayollarda HPV bilan bog'liq bachadon bo'yni zararlanishlarini diagnostika qilishda HPV-DNA testi, genotiplash, sitologiya va kengaytirilgan kolposkopiya yagona xavfga asoslangan algoritimga birlashtirish diagnostikaning klinik samaradorligini oshiradi va yuqori darajali servikal intraepitelial neoplaziyalarni o'z vaqtida aniqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: odam papilloma virusi, HPV, bachadon bo'yni, servikal intraepitelial neoplaziya, CIN, HPV-DNA, genotiplash, sitologiya, kolposkopiya, reproduktiv yosh.

ОПТИМИЗАЦИЯ ДИАГНОСТИКИ ПОРАЖЕНИЙ ШЕЙКИ МАТКИ, АССОЦИИРОВАННЫХ С ВИРУСОМ ПАПИЛЛОМЫ ЧЕЛОВЕКА (ВПЧ), У ПАЦИЕНТОК РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА

Каримова Ф. Т., <https://orcid.org/0009-0004-3846-3649>

Хикматова Н. И., <https://orcid.org/0000-0001-5986-1102>

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сино, улица Гиждувон, 23, Бухара, Узбекистан Тел: +998 (95) 911-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ **Резюме**

Рак шейки матки является одной из значимых онкогинекологических патологий, представляющих серьезную угрозу репродуктивному здоровью женщин. Ведущим

этиологическим фактором его развития считается персистирующая инфекция, вызванная вирусом папилломы человека (ВПЧ, *Human papillomavirus* — HPV) высокого онкогенного риска. Своевременное выявление ВПЧ-инфекции, дифференцированная оценка высокоонкогенных генотипов вируса и диагностика ранних изменений эпителия шейки матки позволяют предупредить развитие цервикальной интраэпителиальной неоплазии и инвазивного рака.

Цель исследования. Повышение эффективности раннего выявления ВПЧ-ассоциированных поражений шейки матки у женщин репродуктивного возраста путём совершенствования диагностического алгоритма, основанного на комплексном применении молекулярно-генетических, цитологических и кольпоскопических методов исследования.

Материал и методы. При обследовании женщин репродуктивного возраста с патологией шейки матки или подозрением на ВПЧ-инфекцию проанализирован комплексный диагностический подход, включающий клинико-анамнестическую оценку, гинекологический осмотр, ВПЧ-ДНК-тестирование, определение генотипов ВПЧ высокого онкогенного риска, жидкостную или традиционную цитологию, расширенную кольпоскопию, а также при наличии показаний — прицельную биопсию шейки матки с последующим гистологическим исследованием.

Результаты. Использование ВПЧ-ДНК-тестирования в качестве первичного молекулярного метода скрининга с последующим генотипированием ВПЧ-позитивных пациенток и их стратификацией по степени риска на основании цитологических и кольпоскопических показателей позволяет повысить эффективность раннего выявления эпителиальных изменений шейки матки. Особого внимания требуют пациентки с выявленными ВПЧ 16 и 18 типов, персистенцией вируса, а также наличием цитологических и кольпоскопических изменений.

Заключение. Комплексное применение ВПЧ-ДНК-тестирования, генотипирования, цитологического исследования и расширенной кольпоскопии в рамках единого риск-ориентированного диагностического алгоритма способствует повышению клинической эффективности диагностики ВПЧ-ассоциированных поражений шейки матки и своевременному выявлению цервикальных интраэпителиальных неоплазий высокой степени.

Ключевые слова: вирус папилломы человека, ВПЧ, шейка матки, цервикальная интраэпителиальная неоплазия, CIN, ВПЧ-ДНК, генотипирование, цитология, кольпоскопия, репродуктивный возраст.

OPTIMIZING THE DIAGNOSTICS OF HUMAN PAPILLOMA VIRUS (HPV)-ASSOCIATED CERVICAL LESIONS IN WOMEN OF REPRODUCTIVE AGE

Karimova F. T., <https://orcid.org/0009-0004-3846-3649>

Khikmatova N. I., <https://orcid.org/0000-0001-5986-1102>

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sino, 23 Gijduvon Street, Bukhara,
Uzbekistan Tel: +998 (95) 911-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Resume

Cervical cancer is one of the most significant gynecologic oncologies, posing a serious threat to women's reproductive health. The leading etiologic factor in its development is considered to be persistent infection caused by the high-oncogenic risk human papillomavirus (HPV). Timely detection of HPV infection, differentiated assessment of highly oncogenic genotypes, and diagnosis of early changes in the cervical epithelium help prevent the development of cervical intraepithelial neoplasia and invasive cancer.

Study objective: To improve the effectiveness of early detection of HPV-associated cervical lesions in women of reproductive age by refining a diagnostic algorithm based on the integrated use of molecular genetic, cytological, and colposcopic methods.

Materials and methods. When examining women of reproductive age with cervical pathology or suspected HPV infection, a comprehensive diagnostic approach was analyzed. This approach included a clinical and anamnestic assessment, a gynecological examination, HPV DNA testing, determination of high-risk HPV genotypes, liquid-based or traditional cytology, extended colposcopy, and, when indicated, a targeted cervical biopsy followed by histological examination.

Results. The use of HPV DNA testing as a primary molecular screening method, followed by genotyping of HPV-positive patients and their risk stratification based on cytological and colposcopic parameters, improves the effectiveness of early detection of cervical epithelial changes. Particular attention is required for patients with detected HPV types 16 and 18, viral persistence, and the presence of cytological and colposcopic changes.

Conclusion. The integrated use of HPV DNA testing, genotyping, cytological examination, and extended colposcopy within a single risk-based diagnostic algorithm improves the clinical effectiveness of diagnosing HPV-associated cervical lesions and the timely detection of high-grade cervical intraepithelial neoplasia.

Keywords: human papillomavirus, HPV, cervix, cervical intraepithelial neoplasia, CIN, HPV DNA, genotyping, cytology, colposcopy, reproductive age.

Dolzarbligi

Bachadon bo'yni saratoni zamonaviy ginekologiya va onkoginekologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Kasallikning asosiy etiologik omili yuqori onkogen xavfga ega odam papilloma virusi bilan uzoq davom etuvchi infeksiya hisoblanadi. HPV jinsiy yo'l bilan yuqadigan eng keng tarqalgan virusli infeksiyalardan biri bo'lib, jinsiy faol reproduktiv yoshdagi ayollarda ayniqsa ko'p uchraydi.

HPV infeksiyasining aksariyat holatlari tranzitor xarakterga ega bo'lib, organizmning immun tizimi ta'sirida ma'lum vaqt davomida spontan eliminatsiyaga uchrashi mumkin. Shu bilan birga, yuqori onkogen xavfli HPV turlarining uzoq muddat persistensiyasi bachadon bo'yni epiteliysida displastik jarayonlarning shakllanishi, servikal intraepitelial neoplaziya (CIN) va keyinchalik invaziv saraton rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

HPV ning 200 dan ortiq genotiplari aniqlangan bo'lib, ularning ayrimlari yuqori onkogen potentsialga ega. HPV 16 va HPV 18 bachadon bo'yni saratoni rivojlanishi bilan eng kuchli bog'langan genotiplar qatoriga kiradi. Shu sababli HPV infeksiyasining mavjudligini aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, virus genotipini hamda uning persistensiyasini baholash klinik jihatdan katta ahamiyatga ega.

An'anaviy sitologik skrining bachadon bo'yni patologiyasini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Biroq molekulyar diagnostika imkoniyatlarining kengayishi HPV-DNA testini birlamchi skrining vositasi sifatida qo'llashga imkon berdi. HPV testining yuqori sezuvchanligi bachadon bo'yni epiteliyidagi morfologik o'zgarishlar hali rivojlanmagan davrda ham yuqori xavfli virus infeksiyasini aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy diagnostik yondashuvning asosiy vazifasi HPV-musbat ayollarning barchasiga bir xil yondashish emas, balki ularda yuqori darajali CIN rivojlanish xavfini individual baholashdan iborat. Buning uchun HPV genotipi, virus persistensiyasi, sitologik o'zgarishlar, transformatsiya zonasining holati va kolposkopik belgilarni kompleks baholash zarur.

Tadqiqot maqsadi: Reprodukativ yoshdagi bemorlarda HPV bilan bog'liq bachadon bo'yni zararlanishlarini erta aniqlash samaradorligini oshirish maqsadida HPV-DNA testi, genotiplash, sitologik tekshiruv va kengaytirilgan kolposkopiya natijalariga asoslangan kompleks diagnostik algoritmi optimallashtirish.

Material va usullar

Reprodukativ yoshdagi ayollarda bachadon bo'yni holatini kompleks baholash uchun diagnostik jarayon bir necha ketma-ket bosqichlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqichda bemorning klinik va anamnestic ma'lumotlari o'rganiladi. Bunda yoshi, hayz va reproduktiv funksiyasi, jinsiy hayotning boshlanish yoshi, jinsiy sheriklar soni, homiladorlik va

tugʻruqlar soni, bachadon boʻyni kasalliklari tarixi, jinsiy yoʻl bilan yuqadigan infeksiyalar, kontratsepsiya usullari, immun tizimiga taʼsir qiluvchi kasalliklar va zararli odatlar hisobga olinadi.

Ginekologik koʻrik vaqtida tashqi jinsiy aʼzolar, qin va bachadon boʻyni holati baholanadi. Bachadon boʻynida ektopiya, kontakt qonash, leykoplakiya, kondilomatoz elementlar, yalligʻlanish yoki boshqa patologik belgilar mavjudligiga alohida eʼtibor beriladi.

Molekulyar diagnostika bosqichida yuqori onkogen xavfli HPV turlarini aniqlash uchun HPV-DNA testidan foydalanish maqsadga muvofiq. Musbat natija olinganda HPV 16 va HPV 18 ni alohida identifikatsiya qilish hamda mavjud laborator imkoniyatlardan kelib chiqib boshqa yuqori xavfli genotiplarni differensial aniqlash bemorning individual xavfini baholash imkonini beradi.

Sitologik tekshiruvda bachadon boʻyni epiteliysidagi hujayraviy oʻzgarishlar Bethesda tizimi boʻyicha baholanadi. Natijalar NILM, ASC-US, ASC-H, LSIL, HSIL, AGC va boshqa kategoriyalarga ajratilishi mumkin. HPV-musbat bemorda sitologik oʻzgarishlarning aniqlanishi chuqurlashtirilgan tekshiruv uchun muhim koʻrsatma hisoblanadi.

Kengaytirilgan kolposkopiya bachadon boʻyni epiteliy qoplami, transformatsiya zonasi, atseto-oq epiteliy, mozaika, punktatsiya, atipik qon tomirlari va yod-negativ sohalar baholanadi. Shubhali oʻchoqlar aniqlanganda nishonli biopsiya amalga oshiriladi.

Gistologik tekshiruv bachadon boʻynining yuqori darajali intraepitelial zararlanishlarini tasdiqlashda asosiy verifikatsiya usuli hisoblanadi. Morfologik xulosada LSIL/CIN1, HSIL/CIN2, HSIL/CIN3, adenokarsinoma in situ yoki invaziv jarayonning mavjudligi baholanadi.

Diagnostic koʻrsatkichlarni kompleks tahlil qilish HPV infeksiyasining mavjudligini aniqlash bilan bir qatorda uning klinik ahamiyatini va neoplastik transformatsiya xavfini baholash imkonini beradi.

Natija a tahlillar

Bachadon boʻyni HPV bilan bogʻliq zararlanishlarini erta aniqlashda faqat bitta diagnostik usuldan foydalanish barcha klinik vaziyatlarda yetarli axborot bermasligi mumkin. Shu sababli zamonaviy diagnostika molekulyar, sitologik, kolposkopik va morfologik usullarni bosqichma-bosqich birlashtirishga asoslanishi lozim.

HPV-DNA testining asosiy afzalligi yuqori onkogen xavfli virus mavjudligini bachadon boʻyni epiteliysida yaqqol morfologik oʻzgarishlar paydo boʻlishidan oldin aniqlash imkoniyatidir. Shu sababli HPV-DNA testi bachadon boʻyni saratoni profilaktikasining yuqori samarali skrining vositasi sifatida qaraladi.

Biroq HPV-DNA testining musbat natijasi bemorda albatta yuqori darajali displaziya yoki saraton mavjudligini anglatmaydi. Reproktiv yoshdagi ayollarda HPV infeksiyasining tranzitor shakllari keng tarqalgan. Shuning uchun HPV-musbat natijadan keyingi eng muhim bosqich bemorni xavf darajasiga koʻra toʻgʻri stratifikatsiya qilish hisoblanadi.

HPV genotiplash mazkur masalani hal qilishda katta ahamiyatga ega. HPV 16 va HPV 18 kabi yuqori xavfli genotiplarning aniqlanishi bemorni chuqurlashtirilgan diagnostik tekshiruvdan oʻtkazish zaruratini belgilovchi muhim omillardan biridir. Kengaytirilgan genotiplash esa boshqa kanserogen HPV turlarining individual xavfini yanada aniqroq baholash imkoniyatini yaratadi.

HPV-musbat bemorlarda sitologik tekshiruv triage usuli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. ASC-US yoki undan yuqori darajadagi hujayraviy atipiya aniqlanganda kolposkopik tekshiruvga ehtiyoj oshadi. Ayniqsa HSIL yoki ASC-H aniqlangan hollarda yuqori darajali intraepitelial zararlanish ehtimoli yuqori boʻlganligi sababli chuqurlashtirilgan diagnostika talab qilinadi.

Kengaytirilgan kolposkopiya bachadon boʻyni epiteliysining strukturaviy va qon tomir oʻzgarishlarini vizual baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, kolposkopiya natijalarini alohida emas, HPV genotipi va sitologik maʼlumotlar bilan birgalikda talqin qilish diagnostik aniqlikni oshiradi.

HPV-musbat, biroq sitologik tekshiruvda intraepitelial zararlanish aniqlanmagan bemorlar ham individual kuzatuvni talab qiladi. Bunday hollarda HPV genotipi, virusning takroriy tekshiruvlarda saqlanib qolishi, bemorning yoshi, immunologik holati va boshqa xavf omillarini hisobga olish zarur.

Ayniqsa HPV infeksiyasining persistensiyasi muhim prognostik ahamiyatga ega. Yuqori onkogen xavfli genotipning takroriy tekshiruvlarda saqlanib qolishi epiteliyal transformatsiya xavfi ortganligini koʻrsatadi va bunday bemorlar dinamik kuzatuv hamda zarur hollarda kolposkopik va morfologik tekshiruvga muhtoj.

Diagnostic algoritmi optimallashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri molekulyar triage imkoniyatlarini kengaytirishdir. HPV genotiplashdan tashqari, ayrim klinik vaziyatlarda HPV mRNA, p16/Ki-67 dual-staining kabi biomarkerlarni qo'llash bachadon bo'yni epiteliysida transformatsiya jarayonini aniqlashga qo'shimcha yordam berishi mumkin.

Shunday qilib, diagnostik jarayonning asosiy maqsadi HPV mavjudligini oddiy qayd etish emas, balki HPV-musbat ayollar orasidan CIN2+ va CIN3+ rivojlanish xavfi yuqori bo'lgan bemorlarni imkon qadar erta aniqlashdir.

Xulosa

Reproduktiv yoshdagi ayollarda bachadon bo'yni HPV bilan bog'liq zararlanishlarining erta diagnostikasi servikal saraton profilaktikasining muhim yo'nalishlaridan biridir. Yuqori onkogen xavfli HPV infeksiyasini molekulyar usulda aniqlash epitelial o'zgarishlar rivojlanishidan oldingi bosqichda xavf guruhlarini shakllantirish imkonini beradi.

HPV-DNA testi, genotiplash, sitologik tekshiruv va kengaytirilgan kolposkopiya kompleks qo'llash diagnostik jarayonning samaradorligini oshiradi. HPV 16/18 aniqlanishi, yuqori xavfli HPV ning persistensiyasi, patologik sitologiya va anormal kolposkopik belgilar yuqori darajali servikal intraepitelial zararlanish ehtimolini ko'rsatuvchi asosiy mezonlar sifatida qaralishi lozim.

HPV-musbat ayollarni individual xavf darajasiga ko'ra stratifikatsiya qilish ortiqcha invaziv tekshiruvlarni kamaytirish bilan birga CIN2+ va CIN3+ holatlarini o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Shu sababli reproduktiv yoshdagi ayollarda HPV bilan bog'liq bachadon bo'yni patologiyasini diagnostika qilishni optimallashtirish HPV-DNA testini birlamchi molekulyar usul sifatida qo'llash, genotiplash orqali xavfni aniqlashtirish va keyingi sitologik, kolposkopik hamda morfologik tekshiruvlarni individual ko'rsatmalar asosida amalga oshirishga asoslanishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. World Health Organization. WHO guideline for screening and treatment of cervical pre-cancer lesions for cervical cancer prevention. 2nd ed. Geneva: World Health Organization; 2021. 115 p. ISBN: 978-92-4-003082-4.
2. World Health Organization. WHO guideline for screening and treatment of cervical pre-cancer lesions for cervical cancer prevention: second edition: use of mRNA tests for human papillomavirus (HPV). Geneva: World Health Organization; 2021. 63 p. ISBN: 978-92-4-004043-4.
3. World Health Organization. Human papillomavirus (HPV) nucleic acid amplification tests (NAATs) to screen for cervical pre-cancer lesions and prevent cervical cancer. Geneva: World Health Organization; 2022. 6 p. ISBN: 978-92-4-004524-8.
4. World Health Organization. Self-care interventions: human papillomavirus (HPV) self-sampling as part of cervical cancer screening and treatment. 2022 update. Geneva: World Health Organization; 2023.
5. World Health Organization. WHO guideline for screening and treatment of cervical pre-cancer lesions for cervical cancer prevention: use of human papillomavirus (HPV) DNA genotyping. Geneva: World Health Organization; 2026. doi:10.2471/B09737.
6. World Health Organization. Global strategy to accelerate the elimination of cervical cancer as a public health problem. Geneva: World Health Organization; 2020.
7. WHO Classification of Tumours Editorial Board. Female genital tumours. 5th ed. Lyon: International Agency for Research on Cancer; 2020. Vol. 4. ISBN: 978-92-832-4504-9.
8. Perkins RB, Guido RS, Castle PE, Chelmow D, Einstein MH, Garcia F, et al.; 2019 ASCCP Risk-Based Management Consensus Guidelines Committee. 2019 ASCCP Risk-Based Management Consensus Guidelines for abnormal cervical cancer screening tests and cancer precursors. J Low Genit Tract Dis. 2020;24(2):102-131. doi:10.1097/LGT.0000000000000525.
9. Fontham ETH, Wolf AMD, Church TR, Etzioni R, Flowers CR, Herzig A, et al. Cervical cancer screening for individuals at average risk: 2020 guideline update from the American Cancer Society. CA Cancer J Clin. 2020;70(5):321-346. doi:10.3322/caac.21628.
10. Kyrgiou M, Arbyn M, Bergeron C, Bosch FX, Dillner J, Jit M, et al. Cervical screening: ESGO-EFC position paper of the European Society of Gynaecologic Oncology and the European Federation for Colposcopy. Br J Cancer. 2020;123(4):510-517. doi:10.1038/s41416-020-0920-9.

Qabul qilingan sana 20.07.2026